

**“SO‘NGI YILLARDA O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK
TASHKILOTI BILAN ALOQALARI: ISTIQBOLLAR, TASHABBUSLAR VA
NATIJALAR”**

Yusufjonov Bahrom Yo‘ldoshovich

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) o‘rtasidagi hamkorlik jarayonining tarixiy asoslari, rivojlanish yo‘nalishlari hamda strategik ahamiyatga ega sohalaridagi hamkorlik tahlil qilinadi. Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va ekologik hamkorlik shakllari to‘g‘risida ham fikr yuritiladi. Shu bilan birga, maqolada O‘zbekistonning IHTdagi faolligi, tashabbuslari va bu hamkorlik orqali mamlakatda barqaror rivojlanishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganishga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston-Afg‘oniston-Pokiston transport koridori, iqtisodiy aloqalar, ekologik hamkorlik, yashil energiya.

Annotation: This article analyzes the historical foundations of the cooperation process between the Republic of Uzbekistan and the Organization of Islamic Cooperation (OIC), its development trends, and cooperation in areas of strategic importance. It also discusses the forms of political, economic, cultural, scientific, and environmental cooperation within the Organization of Islamic Cooperation. At the same time, the article focuses on studying Uzbekistan's activity in the OIC, its initiatives, and the work being carried out to ensure sustainable development in the country through this cooperation.

Keywords: Uzbekistan-Afghanistan-Pakistan transport corridor, economic relations, environmental cooperation, green energy.

Аннотация: В статье анализируются исторические основы процесса сотрудничества Республики Узбекистан с Организацией исламского сотрудничества (ОИС), тенденции развития, взаимодействие в областях, имеющих стратегическое значение. В ходе обсуждения будут также рассмотрены формы политического, экономического, культурного, научного и экологического сотрудничества в рамках Организации исламского сотрудничества. В то же время в статье особое внимание уделяется изучению деятельности Узбекистана в ОИС, его инициатив, а также проводимой работе

по обеспечению устойчивого развития страны посредством этого сотрудничества.

Ключевые слова: *Транспортный коридор Узбекистан-Афганистан-Пакистан, экономические отношения, экологическое сотрудничество, зеленая энергетика.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida so'ngi yillarda ustuvor yo'nalish sifatida ko'p vektorli hamda pragmatik faoliyatning tanlanishi uning xalqaro maydondagi, shu jumladan xalqaro tashkilotlardagi ishtirokining sezilarli darajada oshirmoqda.. Xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni rivojlantirish jarayonida Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) O'zbekiston uchun muhim hamkorlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. IHT — musulmon davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tuzilma bo'lib, unda O'zbekiston 1996-yildan beri to'laqonli a'zo sifatida faol ishtirok etib kelmoqda. Maqolada O'zbekiston va IHT o'rtasidagi aloqalarning mazmun-mohiyati, istiqbollari va mavjud muammolarni hal qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Jumladan, ikki tomonlama manfaatlar asosida shakllanayotgan siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ekologik va ilmiy-texnikaviy hamkorlik tahlilga tortiladi.

MUHOKAMAVA NATIJALAR.

IHT — 57 ta musulmon davlatni birlashtirgan, BMTdan keyingi eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi. O'zbekistonning tashkilotdagi faoliyati siyosiy muloqot va diplomatik aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi[1]. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yildan buyon olib borayotgan ochiq tashqi siyosat asosida IHT bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2021-yilda IHTning Pokistonda o'tkazilgan navbatdagi sessiyasida ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va taraqqiyot masalalarida O'zbekiston tashabbuslarini ilgari surdi[2]. Shu bilan birga, Afg'oniston bo'yicha IHT maxsus kontakt guruhini tiklash taklifi ilgari surilib, bu tashabbus xalqaro doirada ijobiy qarshi olindi. Bundan tashqari, IHTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda strategik muloqotlar olib borilmoqda. Bu siyosiy faollik O'zbekistonning musulmon dunyosidagi mavqeini oshirish bilan birga, global siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishini ta'minlamoqda.

Iqtidodiy sohada ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning IHT bilan iqtisodiy hamkorligi — tashkilotga a'zo davlatlar bilan o'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. IHT doirasida yaratilgan "Savdo imtiyozlari to'g'risida bitim" (TPS-OIC) tizimi O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda[3]. 2023-yilda O'zbekiston va IHT a'zolari o'rtasidagi

tovar ayirboshlash hajmi 2,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekiston IHTga a'zo davlatlar — Turkiya, Pokiston, BAA, Malayziya, Misr kabi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Toshkentda o'tkazilayotgan "OIC Halal Expo" yarmarkalari esa O'zbekiston halal mahsulotlar eksportini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, IHT doirasida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorliklar kengaymoqda. O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston transport koridori loyihasi IHT davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini sezilarli darajada yengillashtiradi. "Yashil energiya" bo'yicha hamkorlik loyihalari ham ayni paytda dolzarb hisoblanadi.

IHT madaniy merosni asrash va targ'ib qilish, diniy-ma'rifiy qadriyatlarni saqlab qolish borasida ham faoliyat yuritadi. O'zbekiston islom sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan yurt sifatida bu boradagi hamkorlikni chuqurlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2024-yilga kelib Xiva shahri "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilinishi bu yo'nalishdagi muhim yutuqlardan biridir. Ushbu tadbir doirasida xalqaro forumlar, turizm ko'rgazmalari, madaniy dasturlar va islom san'ati festivallari o'tkazilmoqda. Buxoro va Samarqand shaharlarida islom arxitekturasini va madaniy yodgorliklari IHT homiyligida restavratsiya qilinmoqda. O'zbekiston IHT doirasida "Islom sivilizatsiyasi markazi" faoliyatini kengaytirishni taklif etmoqda. Bu markaz orqali yosh avlodni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ekstremizm va radikalizmga qarshi immunitetni kuchaytirish ko'zda tutilgan.

IHT doirasida ilm-fan va texnologik taraqqiyotga qaratilgan ko'plab tashabbuslar mavjud. O'zbekiston ushbu yo'nalishda ham faol qatnashib, turli ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirgan[4]. O'zbekiston Fanlar akademiyasi IHTga a'zo davlatlarning ilmiy markazlari bilan qo'shma loyihalar olib bormoqda. Xususan, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, nanotexnologiyalar, biofarmatsevtika va sun'iy intellekt sohasidagi hamkorliklar jadal rivojlanmoqda. 2022-yildan buyon Toshkent shahrida "IHT innovatsion forumi" o'tkazilib kelinmoqda, bunda O'zbekistonlik tadqiqotchilar o'z ishlanmalari bilan qatnashish imkoniga ega bo'lishmoqda[5]. Shuningdek, yosh olimlar o'rtasida akademik almashinuv dasturlari, stipendiyalar va grantlar orqali bilim almashinuvi kuchaymoqda.

O'zbekiston ekologik muammolarning, ayniqsa Orol dengizining qurishi oqibatlarining hal etilishida IHT doirasida faol tashabbuskor hisoblanadi. O'zbekistonning taklifi bilan 2023-yilda IHT ekologik forumi Nukus shahrida tashkil etildi. Forum doirasida IHTga a'zo davlatlar bilan cho'lga aylangan hududlarda o'rmonzorlar barpo etish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro tajriba almashildi. O'zbekiston suv resurslarini

boshqarishda ham ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish tarafdori. Ayniqsa, Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish konsepsiyasi IHT doirasida keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi va Islom Hamkorlik Tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik turli sohalarda izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston o'zining tarixiy, siyosiy va madaniy salohiyatidan kelib chiqib, IHTning faol va nufuzli a'zolaridan biriga aylangan. Bu hamkorlik nafaqat milliy manfaatlarga, balki butun musulmon ummati taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Kelajakda IHT bilan munosabatlarni chuqurlashtirish orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikni ta'minlabgina qolmay, ilmiy, madaniy va ekologik sohalarda ham mintaqaviy yetakchilikka intiladi. Tashkilot doirasidagi o'zaro ishonch, qo'shma loyihalar va samarali muloqot mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashda muhim omil bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Organisation of Islamic Cooperation. Url: <https://new.oic-oci.org>.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi. Url: <https://gov.uz/oz/mfa>
3. Islom hamkorlik tashkiloti O'zbekiston bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor. Dunyo axborot agentligi. Url: <https://dunyo.info/uz>.
4. IHT mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik rivojlantiriladi va mustahkamlanadi. Yuz.uz. Url: <https://yuz.uz/uz>.
5. Islom hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda. Muslim.uz. Url: <https://muslim.uz/uz>.